

MAKTABDA FAN O'QITUVCHILARI VA SINIF RAHBARLARI O'RTASIDA O'ZARO HAMKORLIK MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Tojiyeva Sadoqat Zokirjonovna

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani MMTB tasarrufidagi 55-umumiy o'rta ta'lim maktabi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20490128>

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'rtasidagi hamkorlik munosabatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari tahlil qilingan. Ta'lim va tarbiya jarayonining uzviyligini ta'minlashda pedagoglar hamkorligining ahamiyati yoritilib, mavjud muammolar hamda xorijiy tajribalar asosida ularni bartaraf etish yo'llari taklif etilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, samarali hamkorlik o'quvchilarning akademik o'zlashtirishi, ma'naviy-axloqiy tarbiyasi va kasbiy yo'nalishini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

Kalit so'zlar: sinf rahbari, fan o'qituvchisi, pedagogik hamkorlik, ta'lim sifati, tarbiya, innovatsion faoliyat, kasbiy yo'naltirish, pedagogik boshqaruv.

Abstract

This article examines the pedagogical foundations for developing cooperation between subject teachers and class teachers in general secondary schools. The importance of collaboration in ensuring the integrity of educational and upbringing processes is highlighted. Existing challenges and foreign experiences are analyzed, and practical recommendations are proposed. The study concludes that effective cooperation significantly contributes to students' academic achievement, moral development, and career orientation.

Keywords: class teacher, subject teacher, pedagogical cooperation, educational quality, upbringing, innovation, career guidance, pedagogical management.

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifani amalga oshirishda maktab jamoasining barcha bo'g'inlari o'zaro hamkorlikda faoliyat yuritishi zarur. Ayniqsa, fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari o'rtasidagi hamkorlik ta'lim-tarbiya samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Sinf rahbari o'quvchilarning tarbiyaviy faoliyatini muvofiqlashtiruvchi shaxs bo'lsa, fan o'qituvchisi ularning bilim va kompetensiyalarini rivojlantiradi. Ushbu ikki subyektning yagona maqsad asosida ishlashi o'quvchi shaxsining har har tomonlama kamol topishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ayrim umumta'lim maktablarida fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari faoliyati o'rtasida yetarli darajada integratsiya mavjud emas. Bu esa quyidagi muammolarni keltirib chiqarmoqda:

- o'quvchilarning individual xususiyatlari haqida ma'lumot almashishning sustligi;
- past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashning tizimli emasligi;
- kasbiy yo'naltirish faoliyatining yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning fanlar bilan bog'lanmagan holda tashkil etilishi.

Mazkur muammolar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli pedagoglar hamkorligini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida pedagogik kuzatish, qiyosiy tahlil, me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish, ilmiy manbalarni tahlil qilish hamda ilg'or xorijiy tajribalarni umumlashtirib, umumiy o'rta ta'lim maktablarida fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari faoliyati o'rganildi.

Pedagoglar hamkorligini rivojlantirish quyidagi hujjatlarga asoslanadi:

- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
- O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni;
- "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun;
- Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining sinf rahbarlari faoliyatiga oid me'yoriy hujjatlari;
- Umumiy o'rta ta'lim muassasalari faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjatlar.

Mazkur hujjatlar pedagoglarning ta'lim va tarbiya jarayonidagi mas'uliyatini hamda innovatsion metodlardan foydalanish zarurligini belgilab beradi.

Pedagogik hamkorlik masalalari Sharq va G'arb pedagogik tafakkurida muhim o'rin tutadi. Abdulla Avloniy o'zining "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida tarbiya masalasini millat taraqqiyotining asosiy omili sifatida baholagan. U o'qituvchi va tarbiyachilarning hamkorlikdagi faoliyatini yosh avlod kamolotining muhim sharti deb hisoblaydi.

Chingiz Aytmatovning "Birinchi muallim" asarida ustozning nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatidagi o'rni ko'rsatib berilgan. Bu esa bugungi sinf rahbarlari va fan o'qituvchilari faoliyati uchun ham muhim metodik ahamiyatga ega.

Germaniya tajribasiga nazar tashlasak:

Germaniya maktablarida o'quvchilar qobiliyatini rivojlantirish markaziy o'rinda turadi. Pedagoglar "Iste'dodsiz o'quvchi bo'lmaydi" tamoyili asosida ishlaydi. Ota-ona, sinf rahbari va fan o'qituvchisi o'rtasidagi muntazam hamkorlik ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Janubiy Koreya tajribasida esa pedagoglar o'quvchilarning o'zlashtirish natijalarini muntazam tahlil qilib boradilar. O'quvchilarning individual ehtiyojlariga mos rivojlantiruvchi dasturlar ishlab chiqiladi. Seminar va treninglar orqali pedagoglarning hamkorlik kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Fransiyada o'quvchilar qiziqishlari va qobiliyatlariga ko'ra yo'naltiriladi. Sinf rahbarlari o'quvchilarning rivojlanishini kuzatib boradi va tegishli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda individual rivojlanish strategiyasini ishlab chiqadi.

Tahlillar asosida quyidagi muammolar aniqlandi:

1. Hamkorlikni baholash mezonlarining mavjud emasligi.
2. Past o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishlashning yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- "Zamonaviy ta'lim takliflari" tanlovini joriy etish;
- Fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari uchun hamkorlik treninglarini tashkil etish;
- "Eng yaxshi hamkorlik" nominatsiyasini ta'sis etish;
- Kitobxonlik soatlari, mediasavodxonlik va "Zakovat" klublarini yo'lga qo'yish;
- Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasi asosida malaka oshirish dasturlarini ishlab chiqish.

Sinov tariqasida maktabda "Haftaning eng faol o'quvchisi" nominatsiyasini joriy etdik. Bunda hafta yakunida sinf rahbarlar tomonidan ko'rsatilgan nomzod o'quvchiga fan o'qituvchilari ovoz beradi. Ovoz ko'p olgan o'quvchining ota-onasiga maktab ma'muriyati

tomonidan “Tashakkur qo’ng’irog’i ” qilinib, rag’ batlantirildi. O ‘quv yilining oxirida eng ko’p “Haftaning eng faol o’quvchisi” nominatsiyasini olgan o’quvchiga homiylar tomonidan sovg’a qilinib, “Yilning eng faol namunali o’quvchisi” nominatsiyasi ham berildi. Bu o’quvchi, sinf rahbar va fan o’qituvchisi va ota-ona hamkorligini mustahkamlashda juda yaxshi samara berdi.

Fan o’qituvchilari va sinf rahbarlari o’rtasidagi hamkorlik ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Hamkorlikning tizimli yo’lga qo’yilishi natijasida o’quvchilarning bilim sifati, tarbiyaviy ko’rsatkichlari hamda kasbiy qiziqishlari rivojlanadi.

Shuningdek, pedagoglar o’rtasidagi sog’lom muloqot va tajriba almashinuvi maktab jamoasida ijobiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Shu bois umumta’lim maktablarida fan o’qituvchilari va sinf rahbarlari hamkorligini rivojlantirishga qaratilgan mexanizmlarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to’g’risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2024.
4. Avloniy A. Turkiy Guliston yoxud axloq. – Toshkent: O’qituvchi, 1992.
5. Xasanov O. Liderlar kitobi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2021.
6. Aytmatov Ch. Birinchi muallim. – Toshkent: Sharq, 2018.
7. Qozonchi A.L. O’gay ona. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
8. Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida sinf rahbarlari faoliyatiga oid me’yoriy hujjatlar to’plami. – Toshkent, 2024.